



Tadbirkorga
pand bermang!

4-betda o'qing ↘



"Xabeas korpus" instituti va
"Miranda qoidasi" bu haqda
nimalarni bilamiz?

7-betda o'qing ↘

INSON va qonun

2023-YIL
27-IYUN
SESHANBA

No 25 (1385)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

27-IYUN -
**Matbuot va
ommaviy axborot vositalari
xodimlari kuni**



SO'Z QADRI – O'Z QADRIMIZ!

Jurnalistning qismati qog'oz va qalam. Ba'zan uning ustiga qora ranglar bostirib kirsma, gohida yorqin va hayotbaxsh ranglarning ta'mini tuyib, baxt va halovat topasan. Biz ham ana shu qog'oz va qalamaga umrimizni bag'ishladik. Shu qimmatli hayot va shu sinovli yillar bizni tarbiyaladi. Umrimiza umr qo'shilgani sayin hayotning ma'nosini, mazmunini teranroq his eta boshladik. Yildan-yilga davr va zamon, odamlar, tafakkurimiz o'zgardi, ulg'aydi, yuksaldik, gohida qoqildik, yiqildik, yaxshilikka xayriyoh bo'ldik, yomonlikdan aziyat chekdik, hazar qildik.

Xatolarimizdan saboq oldik. Xulosalarimiz aniq bo'ldi. Nazarimizda biz ekkan daraxtlar xazon bo'layotgandek. Biz suv ichgan daryolar quriyotgandek... Tabiatni toptaganimiz sari nafasimizga tuzoq qo'yayotganimiz, toza havoga zavol bo'layotganimiz ayon bo'ldi. Odamzod chang-to'zon ichidan o'zini axtarishga tusha boshladik. Lekin endi kech... Eng achinarlis, taraqqiyot pardasi ortiga, ko'rkar binolarimiz

soyasiga bu illatni yashirmoqchi bo'layapmiz. Bu aybimizni iqlim o'zgarishi degan bahona bilan oqlashga o'rganib qoldik. Oqibatini o'ylashga, aniqrog'i, tan olishga esa... jur'atimiz yo'q, kibru havomiz, manmanligimiz yo'l bermaydi.

Yana bir illat qarshisida ojizmiz, kuchsizmiz va shuning uchun ham qalamimiz bilan shu tomonga og'ishni boshladik. Yildan-yilga mehr qahat bo'layotganini tan olgimiz kelmaydi... Ma'naviyat haqidagi cho'pchaklar eskirdi. Ma'naviyat jarohatlari bitmaydigan darajaga yetdi. Odamlarning bir-biriga qilayotgan tavozuzlari, yovuzzlari, nafratlari hatto yovvoyi, eng yirtqich hayvonlarda ham yo'q. Shu darajaga yetdikki, cho'kayotgan odamga yordam berish or'ninga uni video tasvirga olib tarqatadigan toshbag'irga aylandik. Yarim dunyonи mehr bilan egallagan Sohibqiron Amir Temur tartiblaridan, o'llmas tuzuklaridan juda uzoqdamiz.

8-betda o'qing ↘



**BIRINCHI O'ZBEK
AKADEMIK AYOLINI
ESLAB...**

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida "O'zbek ayollaridan birinchi akademik ayol Xadicha Sulaymonova"ning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi" mavzusidagi konferensiya va ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun press-tur tashkil etildi.

Tadborda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti, O'zbekiston yuristlar assotsiatsiyasi va ommaviy axborot vositalari vakillari hamda biogerlar ishtirok etdi.

Tadbir doirasida OAV vakillariga X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyati, amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi, yangi joriy etilgan ekspertiza turlari, takomillashtirilgan zamонавий moddiy-tehnik baza haqida batafsil ma'lumot berildi.

Jamiyatimizda demokratik qadriyatlarini qoror toptirish, fuqarolarning axborot sohasidagi konsitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, sud-huquq sohasidagi islohot-

lar, dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqeа-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy ma'lumatlar yetkazish borasida ommaviy axborot vositalari vakillarining mehnatlari alohida e'tirof etildi. 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari munosabati bilan markaz faoliyatini keng yoritayotgan ommaviy axborot vositalari xodimlari taqdirlandi.

O'z muxbirimiz

@adolat_nashrlari
 "ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!

"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



Adliya vazirligida Oliy Majlis Senati tashabbusi bilan har yili o'tkazib kelinayotgan "Gender tenglik faoli" milliy tanlovining navbatdagi taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.


"ADOLAT" MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI – "GENDER TENGLIK FAOLI" MILLIY TANLOVI G'OLIBI

Tadbir davomida Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi "Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan eng yaxshi nashr", "O'zarkiv" agentligi "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol respublika darasidagi davlat organi" nominatsiyasi g'olib deb topildi hamda g'oliblar maxsus diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Taqdirlash marosimida adliya vaziri o'rinnbosari A. Karimov, Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasini raisi M. Kadirkanova, Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasini a'zosini, senator Gulnora Marufova, Oila va xotin-qizlar qo'mitasini vakillari ishtirok etishdi.

2 KONSTITUTSIYANI O'RGANAMIZ

SHA'NIMIZ VA QADRIMIZ HIMOYACHISI



Rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir fuqaro o'z ijtimoiy shaxsiy hayotini, o'z qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi. AQSh Mustaqillik Deklaratsiyasi muallifi, AQShning jahonga mashhur 3-prezidenti Tomas Jefferson ta'kidlaganidek: "Amerika erkinligi uchun eng katta xavf – bu Konstitutsiyani mensimaydigan hukumatdir".

Konstitutsiyaga ko'plab o'zgartirishlar kiritilishi uning barqarorlik xususiyatiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta. Lekin Konstitutsiyaning o'zgarishi tabbiy jarayondir. Eng muhim, bu o'zgarishlar davlat va uning orqanlari manfaatlarini ko'zlab emas, balki xalqimiz ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirildi. Aynan shu gaplarning huquqiy asosi Konstitutsiyaning 2-moddasida o'z tasdig'ini topgan. Ya'ni, ushbu modda da ta'kidlanganidek: "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulidirlar".

Ma'lumki, mamlakatimizda barcha davlat hokimiyyati va boshqaruva organlarning asosini "xalq" tashkil etadi. Konstitutsiyamizning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyyatining birdan-bir manbaidir" deb belgilab qo'yilgan.

Butun dunyoda 2017-yil noyabr oyidan boshlab kriptovalyuta turi – bit-coin va boshqa raqamlı kriptovalyutalar rivojlana boshladi va tezda butun dunyoda raqamlı pul birligi vositasi sifatida tarqaldi. Faqat bu davrda ham Bangladesh, Boliviya, Ekvador, Qirg'iziston va Vietnamda taqiqlandi, Xitoy va Rossiya esa ularni taqiqlashni taklif qilib chiqdi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda raqamlı iqtisodiyotni rivojlanishiga davalat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaliviy texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalaliga jadal kirib bormoqda. Xususan, moliyaviy xizmatlar sohasida bu jarayon, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Raqamlashtirish natijasida onlayn to'lovlar, elektron pullar, mobil to'lov tizimlari bilan bir qatorda kripto-aktivlar sohasi qamrovi ham kengaymoqda.



Hozirgi globalashuv davrida insoniyat har qanday sun'i intellektlarga moslashib borishi shart. O'tgan ko'p yillar davomida raqamlı valyutani yaratish uchun ancha urinishlar bo'ldi.

KRIPTOVALYUTALAR HUQUQIY HOLATI VA TURLARI

Kripto-aktivlar zamonaliviy texnologiyalarga asoslangan to'lov va hisob-kitob tizimlaridir. Bunday holda, mablag'lar banklar yoki boshqa turdag'i vositachilarni jaib qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri bir foydalanuvchidan ikkinchisiga o'tkazilishi mumkin. Kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish va saqlash, kripto-aktivlarni yaratish bilan bog'liq jarayonlar to'liq avtomatlashirilgan va blokcheyn tizimida ma'lumotlarni markazlashtirilmagan saqlash ularning ishonchiligidan darajasini ta'minlaydi. 2017-yilda Singapurda tashkil etilgan TripleA xalqaro kompaniyasi jahon statistikasiga asoslanib, quyidagi raqamlarni keltiradi: kriptovalyutalar egalari soni bo'yicha O'zbekiston dunyo davlatlari orasida 52-o'rinni (344 047) egallab, 2022-yil holatiga ko'ra, mamlakat aholisining 1,03 foizini tashkil etgan.

"Chainalysis" kompaniyasining "Global Cryptocurrency Adoption Index 2021" hisobotiga ko'ra, kriptovalyutarning global qabul qili-

nishi rivojlanayotgan bozorlarda kriptovalyutalardan foydalanishni rag'batlantiradigan peer-to-peer platformalari tufayli 880 foizdan ko'proqqa oshgan. Markaziy va Janubiy Osiyo, Okeaniya, Lotin Amerikasi va Afrika, Garbiy Yevropa yoki Sharqiy Osiyo kabi iqtisodiyoti o'rtacha kattaroq mintaqalarga qaraganda p2p-platformalariga ko'proq veb-trafiq yuboradi.

KRIPTOAKTIVLAR MUOMALASI TAQIQLANGANMI?

Respublikada kripto-aktivlar muomalasini huquqiy tartibga solishining hozirgi holati qanday?

Dastlabki qadam bilan 2018-yil 3-iyulda Prezidentning "O'zbekiston Respublikasida raqamlı iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlanishiga chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Unga muvofiq, respublikada kriptoaktivlarning muomalasi taqiqlanmagani, biroq kripto-aktivlar muomalasi bilan bog'liq faoliyat litsenziyalanishi kerakligi belgilandi.

Lekin, amaliy jihatdan kripto-aktivlar savdosini faqatgina kripto-birjalarida amalga oshirishga ruxsat berilgan. Hozirda O'zbekiston Respublikasida bitta kripto-birja "Uznex" faoliyat ko'satmoqda. Ma'lumot o'rniда shuni aytish kerakki, "Uznex" kripto-birjasi ILMA tomonidan berilgan amal qilish muddati cheklanmagan litsenziya asosida ishlashi. Ta'sischi "Koeba group" AJ (Koreya Respublikasida 2018-yil 16-oktabrda ro'yxatga olinagan) Garantex kriptovalyuta birjasi ham O'zbekistonda o'z vakolatxonasini ochish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda.

Yuqorida keltirilgan Prezident qarori kripto-aktivlar muomalasini tartibga solishda mamlakatimiz tomonidan birinchi qadam bo'lub, bu yo'nalishda siyosatning dastlabki yondashuvlarini o'zida mujassam etdi.


Mazkur qarorga Prezidentning 2022-yil 27-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qtogan deb hisoblash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, kripto-aktivlar aylanmasi sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha eng muhim vazifa – investitsiyavi va tadbirdorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatini, jumladan mayning, smart-kontrakt, konsalting, emissiya, ayrboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'ortalash, shuningdek, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamlari yozuvlar yig'indisi bo'lgan qiymati va egasiga egadir. Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyat turlariga mayning va kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlar faoliyatini kiradi.

Shuni ta'kidlash joizki, qonun chiqaruvchi tomonidan qonun darajasida raqamlı aktivlar – kripto-aktivlar, ular o'z aksini topadigan reyestr – blokcheyngi huquqiy maqom yoki asos belgilanmagan. Raqamlı pullar va aktivlarning farqi qonunji jihatdan mustahkamlanmagan.

JAVOBGARLIKNI NAZARDA TUTMAYDIM!

Kripto-aktivlarning noqonunji muomalasi va yashirin mayningning ortib borayotganiga qaramay, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risida qodekslar hali ham javobgarlikni nazarda tutmaydi. Mutaxassislarining fikricha, bu muammo kriptoaktivlar aylanmasi ustidan nazoratning past darajasi, ularning markazlashmagani muomalasining texnologik xususiyatlari va O'zbekistonda faqat xorijiy

yuridik shaxslar uchun kriptovalyuta birjasini yaratish huquqi bilan bog'liq bo'lub, bu mayningni qonuniylashtirishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, mayning-fermalar tomonidan katta miqdorda energiya iste'mol qilinishi mamlakat infratuzilmasiga zarar yetkazayotganini ko'rishimiz mumkin.



ISTIQBOLLI LOYIHALAR MILLIY AGENTLIGI

Istiqbolli loyihamil milliy agentligi kripto-aktivlar muomalasi sohasidagi vakolati davlat organi hisoblanadi.

Kripto-birja, mayning-pul, kripto-depozitariy, kripto-do'konlar ayni vaqtda mamlakatimiz aholisi o'rtaida muomalaga kirib borishi inobatga olinsa, uni biz xizmatlar provayderlari turlari sifatida baholashimiz mumkin bo'ladi.

2023-yil 1-yanvardan O'zbekiston fuqarolarli va yuridik shaxslari kriptoaktivlarni faqat milliy provayderlar orqali sotib olishlari, sotishlari va (yoki) al mashishlari mumkin.

Litsenziya olish tabalari va shartlari doirasida xizmat ko'rsatuvchi provayderlar qarorda belgilangan ma'lumotlarni besh yil davomida saqlashi shart qilin qo'yildi.

Ro'yxatdan o'tish chog'ida xizmat ko'rsatuvchi provayderlar kamida 5 ming barobar bazaviy hisoblash miqdori (1,35 milliard so'm) bo'lgan ustav kapitaliga ega bo'lishi kerak, shundan 3 ming barobar baza-viy hisoblash miqdori O'zbekiston banklaridagi alohida hisobvaraqa saqlanadi.

Jismoni va yuridik shaxslarning O'zbekiston hududida kripto-aktivlarga ega bo'lgan operatsiyalari soliqqa tortilmaydi, daromadiali esa soliq solinadigan bazaga kiritilmaydi. Valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari kriptovalyutaga oid valyuta operatsiyalariga tatbiq etilmaydi.

Ammo shunga qaramay, raqamlı aktivlar sohasida yagona qonunning yo'qligi ushbu sohada yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishni qiyinlashtiradi va huquqni qo'llash amaliyotini murakkablashtiradi. Shuningdek, ushbu hujjatlarning past yuridik kuchga ega ekanligi xalqaro maydonda yirik aktiv aylanmasiga ega kripto-birjalarning O'zbekiston hududida faoliyat yuritishga qiziqishi ni pasaytiradi.

Jahongir QURBONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o'qituvchisi

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



Buxoro tumanidagi "Yangi turmush" mahallasida yashovchi X. Annayevanining ishidan noqonuniy bo'shatilgani haqidagi yozma murojaati tuman adliya bo'lumi tomonidan o'rganildi.



HAM ISHGA TIKLANDI, HAM ISH HAQI UNDIRILDI

Fuqaro X. Annayeva Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Buxoro tuman bo'lumi "Ijtimoiy yagona reyestri"da davlat ijtimoiy yordamlari va xizmatlari kor'satish sektori yetakchi inspektori vazifasida ishlab kelgan. Pensiya jamg'armasi Buxoro viloyat boshqarmasining 2023-yil 23-martdagi buyrug'i muvofiq, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismi 1-bandiga asosan buyruq chiqqan kundan e'tiboran bekor qilingan.

Mazkur buyruqning qonuniyligi o'rganilganda, ish beruvchi ya'nini Pensiya jamg'armasi Buxoro viloyat boshqarmasi tomonidan X. Annayevaga shtatlar qisqarishi tufayli mehnat shartnomasi 2 oydan so'ng bekor qilinishi haqida 2023-yil 18-yanvarda ogohlantirish berilgan, shu asosda ish beruvchi tomonidan 2023-yil 13-martda boshqarma Kasaba uyushmasi qo'mitasiga tegishli xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish yuzasidan taqdimnomalar kiritilgani ma'lum bo'ldi.

Kasaba uyushmasi qo'mitasining 2023-yil 17-martdagi yig'ilish bayoni bilan taqdimnomaga ilova qilingan ro'yxatdagi xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berilgan. Ammo X. Annayeva kasaba uyushmasi qo'mitasi majlis o'tkaziladigan sana va joy haqida oldindan xabardor qilinmagani (biror-bir tilxat yoki pochta kvitansiyasi ham mavjud emas) sababli yig'ilishda ishtiroy etolmagan.

Holbuki, Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi raysosatining 2016-yil 19-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan "Kacaba uyushmasi organida ish beruvchining taqdimomasini ko'rish chiqish tartibi"ning 11-bandida qayd etilganidek, masalasi ko'rileyotgan xodim tegishli kasaba uyushmasi organi majlisida ishtiroy etish huquqiga ega. Kasaba uyushmasi organi xodimning majlisda ishtiroy etishi uchun yetarli imkoniyat yaratishi lozim.

Demak, Kasaba uyushmasi qo'mitasining yuqorida qayd etilgan majlis bayoni amaldagi qonunchilik talablariga rivoja qilinmay rasmiylashtirilgan bo'lib, boshqarmasining 2023-yil 23-martdagi buyrug'i ham g'ayriqonuniy hisoblanadi.

Bundan tashqari, X. Annayevaga mehnat qonunchiligidan beigelangan bir oylik o'ttacha oylik ish haqi miqdoridagi ishidan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlardan bo'yicha to'liq hisob-kitob qilinmagani aniqlandi.

Yuqoridagilardagi ko'ra, tuman adliya bo'lumi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Buxoro tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, sudning tegishli qarori bilan da'vo kanoatlantirilib, X. Annayeva ishga tiklandi va Pensiya jamg'armasi Buxoro viloyat boshqarmasi hisobidan majburiy proqul kundari uchun 11,5 million so'm mablag' to'lab beriladigan bo'ldi.

Abdurahimxo'ja BAFAYEV,
Buxoro tuman adliya bo'lumi boshlig'i



Bosun tumanida faoliyat olib borayotgan X. Suvonov rahbarligidagi "Bekzod me'mor" mas'uliysi cheklangan jamiyat tuman maktabgacha va muktab ta'limi bo'lumi bilan 2021-yil 3-sentabr kuni tuzilgan shartnomaga asosan 14-sonli DMTTni joriy ta'mirlab, jamiyat tomonidan 194 million 194 ming 500 so'm miqdoridagi ta'mirlash ishlari bajarilgan. Shuningdek, Sh. Musulmonov rahbarligidagi "Shaxzod me'mori" mas'uliyi cheklangan jamiyat tuman maktabgacha va muktab ta'limi bo'lumi bilan 2021-yil 6-sentabrda tuzilgan shartnomaga asosan 15-sonli DMTTni joriy ta'mirlab bergan, ya'n 349 million 629 ming 100 so'm miqdoridagi ish bajarilgan.

Bundan tashqari, mazkur MChJ 2023-yil 26-yanvarda tuzilgan shartnomaga asosan tumandagi 1-sonli umumiy o'rta ta'lim muktabi binosining isitish tizimini joriy ta'mirlab bergani uchun 252 million 676 ming 903 so'm miqdoridagi bajarilgan ishlarning qiyimti tuman maktabgacha va muktab ta'limi bo'lumi bilan 2021-yil to'monidan to'lab berilmagan.


Tadbirkorlarning bu borada amaliy yordam ko'rsatilishini so'rab tuman adliya bo'lumiga qilgan yozma murojaatlari o'rganildi va mazkur MChJlar manfaatini ko'zlab, yetkazilgan zararni undirish to'g'risida Sherobod tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizalari kiritildi.

TADBIRKORGA PAND BERMANG!



Sudning tegishli hal qiluv qarorlariga ko'ra, tuman adliya bo'lumining "Bekzod me'mor" hamda "Shaxzod me'mori" mas'uliyi cheklangan jamiyatlar manfaatida kiritilgan da'vo arizalari to'liq qanoatlantirilib, javobgar Boysun tuman MMTB hisobidan ikkala MChJ foydasiga jami 796 million 500 ming 503 so'm miqdoridagi zararni undirish belgilandi.

N. MAMADIYEV,
Boysun tuman adliya bo'lumi boshlig'i



Xo'jayli tumanidagi 1-sonli umumta'lum muktabining xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinosari lavozimida ishlagan fuqaro D.T. murojaat qilib, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinidan so'ng unga nafaqa to'lanmagandan norozi bo'lib, amaliy yordam berishni so'rab tuman adliya bo'lumiga murojaat qilgan.

Ishsiz, nafaqasiz qolgan

DIREKTOR O'RINBOSARI

Murojaat o'rganilganda, fuqaro D.T. haqiqatan ham tuman maktabgacha va muktab ta'limi bo'lumiga qarashli 1-sonli umumta'lum muktabida xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinosari lavozimida ishlagani, shuningdek, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilinmani, yuridik markazdan huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, ijobil xulosa berilgan buyruqda xodimga ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lsa-da, to'lanmagani aniqlandi.

Vaholaki, Mehnat kodeksining 173-moddasida (eski tahrirdagi Mehnat kodeksining 109-moddasi) mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilinmaganida ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanishi belgilangan.

Shunga asosan, adliya bo'lumi yuridik xizmat ko'rsatish markazi tomonidan fuqaro D.T. ga u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilinmani munosabati bilan 1 million 498 ming 238 so'm miqdoridagi ishidan bo'shatish nafaqasi undirib berildi.

Nurya BERDINIYAZOVA,
Xo'jayli tuman adliya bo'lumi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

TUG'ILGAN BOLANING ONASI VOYAGA YETMABAN BO'LSA...

- Yolg'iz onadan tug'ilgan bolaning tug'ilishini qayd etish tartibi haqida ma'lumot bersangiz?

Sh. ALIYEVA,
Yangiyo'l tuman

- Bunday holda tug'ilishni qayd etish uchun yolg'iz (qonuniy nikohda bo'lumagan) ona tomonidan FHDY organiga onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjat va yozma ariza taqdim etiladi.

Agar tug'ilgan bolaning onasi voyaga yetmagan bo'lsa, tug'ilishni qayd etish bolaning tug'ilganligi haqidagi tibbiy ma'lumotnomasi hamda yasylilik va homiylik organizining arizasiga asosan onaning yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan qayd etiladi. Bunda bolani tuqqan onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjati yoki tug'ilganlik haqidagi gubernomasi bilan birga yashash va o'qish joyidan rasmli yelmi langan ma'lumotnomalar ham taqdim etilishi lozim.

Feruza TURG'UNBOYEEVA,
Yangiyo'l tuman FHDY bo'lumi mudirasi

Keyingi yillarda aholining kundalik turmushini, yashash sharoitlarini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi ko'priklar qurilmoqda, yo'llar ta'mirlanmoqda, aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmoqda. Ayniqsa, elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni to'la qondirish maqsadida rejali ishlari qilinmoqda. Shunday bo'lsa-da, anomal sovuq va anomal issiq davrida aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji yetarli darajada qondirilmagani ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, bu yilgi qishki mavsumda bu holat yaqqol sezilib qoldi. Bu esa odamlarning norozligiga sabab bo'ldi. Natijada energetik ta'minotni talab darajasiga yetkazish uchun Davlat rahbari topshirig'i bilan aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Qishki anomal sovuqda xuddi shunga o'xshash voqeа poytaxtimizning Shayxontohur tumani "Oqilon" mahallasida ham sodir bo'ldi. Bugungi kunda mahalla hududida yashovchi barcha mahalliy aholi ko'p qavatlari uylarda emas, xonadonlarda, hovli-joylarda istiqomat qilishadi.

Kengashib ish qilishga odatlangan mazkur mahalla ahli yaqinda ko'ngilni xira qiluvchi holatga duch kelishdi. Gap shundaki, he yo'q, be yo'q, hech bir xat-hujjatsiz yaqindagi asfalt qilingan mahalla hududidagi yo'lning chetida quruv tortish uchun qazish ishlari boshlanib ketti. Mahalla ahli ularning kimligini yoki kimning buyurtmasini bajarayotganini ham bilishmadи. Bu esa odamlarning keskin norozligiga sabab bo'ldi. Ellik chog'li odam norozlili bildirib, mahalla idorasiga kelishdi.

HAMMASI YAXSHILIKKA...

- Mahalla bedarvoza emas, - deydi mahalla raisi Muhabbat Yoqubova biz bilan suhbatda. - Sektor rahbari bilan gaplashdim. Bu ishlari yaxshilikka bo'yapti, - deyishdi. Quruv tortish ishlari qishki mavsumda elektr energiyasi yetishmovchiligining oldini olish uchun qilinayotganini aytishi.

Mahalla raisi sifatida ishchilar bilan gaplashdim. Kabel o'tkazish bo'yicha topshiriq bilan kelishganini aytishi. Shu muammo bilan shahar. Elektr tarmoqlari idorasigacha chiqdirm, mas'ullar bilan bog'landim, masalaga oydinlik kiritdik. Lekin g'isht qolipdan ko'chgandi. Ko'chamiz yaroqsiz holga kelib bo'lgandi. Prokuratura, tuman elektr tarmoqlari idorasи, hokimlik mas'ullari ishtirokida mahalla faollari bilan muloqot o'tkazildi.

Qishda bizda elektr energiyasida yetishmovchiliklar bo'ldi. Shuning uchun men bu holatni avvaliga to'g'iри qabul qildim. Poytaxtimizning boshqa hududlarida ham xuddi shunday quvurlar tortilgani uchun ishchilarining ishiga qarshilik bildira olmadim. Yo'lsozlar bilan gaplashganimizda esa ko'cha haqiqatan ham odamlar norozi bo'lganidek, ta'mirlab holatga kelib qolgan, bu yo'l qaytadan asfalt qilinmasa, vaqtli kelib yog'ingarchiliklar sabab ta'mirlangan joylar yana cho'kib,

Suv keltirgan elda aziz, deyishadi. Yo'l qurgan-chi? Har kuni qayergadir yo'lga otlanamiz. O'qishgami, ishgami, biror yumush bilanmi ko'chaga chiqamiz. Borar manzilimiz yaqin, yo'limiz bexa tar bo'lishi uchun yurgan yo'llarimiz tekis, raxon bo'lishi, ta'mirlab bo'imasligi zarur, albatta. Buning uchun esa, katta mehnat va mablag' talab qilinadi.

AYBSIZ AYBDORLAR



YOXUD YO'L MUAMMOSI

yaroqsiz bo'lib qolishini aytishdi.

"Chumchuq so'ysayam qassob so'syin" degan gap bor xalqimizda. Shu boisdan, masalaga xolis yondashish maqsadida usta yo'lsoz mutaxassislarining bu boradagi fikrlari bilan ham qiziqdik.

- Ochig'i aytish kerak, mehnatin-giz qadrlnmasa, nohaqilkn sezsangiz, siz ham norozi bo'lasiz, albatta. "Oqilon" mahallasi hududidagi tekis, raxon yo'lining yaroqsiz holga kelishi "yo'lining egasi" bo'lgan soha mas'ullarini ham tashvishga soldi.

Prezidentning 2023-yil 11-martdagи "Toshkent shahridagi iste'molchilar ni energiya resurslari bilan barqaror ta'mirlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 2023-yilda Toshkent shahri Shayxontohur tumanining past kuchlanishli elektr tarmoqlarini yangilash dasturining manzilli ro'yxati ham tasdiqlangan. Mazkur ro'yxatning 8-ustunida "Oqilon" mahallasiда TP-2762 va TP-629 oraliq'idagi 6 kvli F. Orenburgskiy-2 kabel tarmog'ini rekonstruksiya qilish ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, qarorning 3-bandida Yunusobod, Shayxontohur, Mirzo Ulug'bek, Yashnobod va Yangihayot tumanlarida umumiyy quvvati 664 MVA bo'lgan 5 ta 110 kV kuchlanishli podstansiya hamda 49,6 km uzunlikdagi 35 kV va 110 kV kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini qurish belgilangan.

Mahalla raisi mas'ullar bilan gaplashganida mahalla hududidan quvur o'tkazish uchun qazish ishlari yuqoridaq qaror ijrosini ta'mirlash maqsadida amalga oshirilganai aytigan. Biroq mahalliy aholi oldindan ogohlantirilmagan sababli ham yuzaga kelgan noqulaylikdan norozi bo'lgan.

Kabel tarmog'ini rekonstruksiya qilish ishlari belgilanganidek amalga oshirilgan. Biroq bu borada Toshkent mintaqaviy yo'llardan foydalanish unitar korxonasi bilan kelishilmagan.

YO'LSOZLAR HAM NOROZI

Aholining "Ishonch telefonи"ga qilgan murojaati sababli Toshkent min-

mintaqaviy yo'llardan foydalanish unitar korxonasi mas'ul xodimi. - Bunda yo'llining xizmat qilish davri qatnov qismidagi avtomashinalar o'tkazuvchanligiga qarab belgilanadi. Yo'llar va ichki ko'chalarining qatnov qismida yer osti ishlari olib borilgandan keyin asfalt-beton qoplamasining xizmat qilish muddati 4-5 yilga qisqaradi. Sababi, qazilgan joylarda yo'llarni qayta ta'mirlash ishlari belgilangan qoidalarga asosan bajarilmaydi. Qum-shag'al yotqizish qatlamaqtam amalga oshirilmaydi. Buning natijasida yog'ingarchiliklar sababli vaqt o'tganidan keyin cho'kindilar paydo bo'ladi. Asfalt-beton qoplamasida yoriqlar paydo bo'lishi ko'chaniga 1-2 yil ichida yaroqsiz holga keltiradi. Bunday holatlarda ko'chaning eni bo'yicha asfalt-beton qoplamasi yotqizilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mutaxassisining tahlii qillishicha, birgina "Oqilon" mahallasi dagi quvr o'tgan hududdagi yo'lni qayta ta'mirlash uchun salkam 40 million so'm mablag' sarflanadi. Mahalla huddidagi kabel ko'milgan joyning ta'miri va ishchi kuchi, transport xarajatlari uchun 26 million so'm sarflanishi kerak. Bu hozirgacha kabel o'tkazish uchun qazilib, qayta yopilgan joygacha hisoblangan mablag'! Svetoforming oldi, kabel quvuri ko'milib, hali ta'miri bitmagan ko'chani yangidan ta'mirlash uchun esa shu joyning ta'miri va ishchi kuchi, transport xarajatlari qo'shib hisoblaganda 13 milliondan ortiq pul sarflanadi.

Kabel quvuri ko'milganidan keyni ko'cha yangidan asfalt qilinagan taqdirda 34 milliondan ziyod xarajat evaziga ko'cha yaroqli holga kelishi mumkin.

XULOSA

Endi o'zingiz o'ylab ko'ring, bu birgina "Oqilon" mahallasi dagi muammo. Agar butun yurtimiz bo'yicha xuddi shunday mas'uliylatsizlarcha ish qilinagan bo'lsa, bu holat yo'lsozlar uchun qancha muammo tug'diradi? Buning uchun qancha mablag' kerak bo'ladi?! Muammoning og'riqli va odamlarini o'ylantirayotgan tomoni ham ana shunda!


Bizni o'ylantirgan masala shundaki, agar belgilanayotgan tadbirlar puxta reja bilan qilinsa, bunda aholining yashash sharoitlari, mavjud infratuzilma oldindan hisobga olib ish tutilsa, ayniqsa, xabardon qilish tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, bu kabi noroziliklar, noxush holatlar bo'lmasisligi aniq! Agar qaror qabul qilishda tomonlar kengashib, kelishib ish qilsa, odamlarning norozligiga sabab bo'ladigan, ularning tinch-xotirjam hayot kechirishi uchun noqulayliklar tug'diradigan holatlar qayta-qayta sodir bo'lavermaydi.

Hozircha berilgan va'dalarga biz ham ishongimiz keldi. Bu mavzuga yana qaytamiz.

6 KO'ZGU

Sudga da've ariza yoki ariza kelib tushgach, avvalambor, sudya taqdim etilgan hujjatni sinchkovlik bilan o'rganib chiqish, qonun talablari asosida rasmiylashtirilgani, shuningdek mazkur nizo sudda ko'rishga taalluqli yoki taalluqli emasligiga oydinilik kiritishi talab etiladi.

Ogil sudlovda TAALLUQLILIK MUAMMOSI



Taalluqlilik instituti fuqarolik huquqiy munosabatlarning butun bir qismini qamrab oladi. Taalluqlilik mavzusining u yoki bi jihatlar fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi doirasida Sh. Shorahmetov, X. Yodgorov, M. Mamasiddiqov, Z. Esanova singari olimlar tomonidan o'rganilgan.

Taalluqlilikda nafaqat sud, balki barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, uyushmalar, fuqarolaring o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan vakolatiga ko'ra nizolarni hal qilishda ishtiroy etadi. Nizolarning sud organlariga tegishli ekanii va sud tizimi bo'g'lini o'tasida nizoning turi, sub-

yeqtilar maqomi (tarkibi), taraf sifatida ishtiroy etayotgan jismoniy va yuridik shaxslarning yashash manzili va joylashgan joyi, nizo predmetining turgan (joylashgan) yeri bo'yicha sudga mu-rojaat qilinishi belgilangan. Fuqarolik protsessual kodeksining 26-moddasi-ga binoan, taraflardan hech bo'lma-ganda bittasi fuqaro bo'lgan nizolar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga taalluqlidir.

Fuqarolik protsessual huquqida taalluqlilik mustasno taalluqlilik, alternativ taalluqlilik, shartnomaviy taalluqlilik, shartli (imperativ) taal-luqlilik turlariga ajratiladi.

Bunda ish sudda ko'rulguncha u yoki bu organlarda ko'riliishi talab

etilmaydi.

Imperativ (shartli) taalluqlilik ishning muayyan ketma-ketlik asosida bir nechta yurisdiksia organlari tomonidan ko'rib chiqilishini, ya'ni qonun hujjatlarida yoki shartnomalarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ishlardastavval sudga qadar boshqa organlarda ko'rilganidan keyingina sudga taalluqli bo'lishini nazarda tutadi.

Alternativ taalluqlilik esa muayyan tofadagi ishlar bo'yicha shaxsning o'zining buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha bir nechta organga murojaat qilishi mumkinligini nazarda tutadi.

Shartnomaviy taalluqlilik alternativ taalluqlilikka o'xshab ketadi. Bunda ham taraflar nizoni hal etish vakolatiga ega bo'lgan organni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, ular nizoni qaysi organ ko'rib hal qilishini o'zaro kelishgan holda belgilaydi. Aynan shu xususiyat shartnomaviy taalluqlilik alternativ taalluqlilikdan farqlash imkonini beradi. Shartnomaviy taalluqlilikda bu tanlovgaga har ikkala taraflarning kelishuvni asosida erishilsa, alternativ taalluqlilikda bu tanlov taraflardan biriga, asosan, da'vogarga berilganini ko'rish mumkin. Shartnomaviy taalluqlilik qoidalariga muvofiq, nizo tegishli organ tomonidan ko'rib chiqilanidan so'ng boshqa organ tomonidan qayta ko'rib chiqilishi

mumkin emas.

Joriy yilning 26-aprel kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'riliishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni asosida Jinoyat protsessual, Jinoyat-ijroiya, Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslari biga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksi "ish materiallari"ni sudga taalluqliliga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha soddan boshqa sudga o'tkazish" deb nomlangan yangi 311-modda bilan to'dirildi. Unga ko'ra, talab fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqlilik qoidalari buzilgan holda taqdim etilgan taqdirda, da've arizasi (ariza) taalluqliliga ko'ra iqtisodiy sudga yoki ma'muriy sudga ko'rib chiqish uchun o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasida suldar o'ttasida sudga taalluqlilik to'g'risidagi nizolarga yo'l qo'yilmaydi.

Alisher NAMOZOV,

Sudyalar olyi kengashi huzuridagi Sudyalar olyi maktabi tinglovchisi

SO'RAGAN EDINGIZ

Mahkumlar qanday huquqlarga ega?

- Qonunchilikka ko'ra, mahkumlar qanday huquq va majburiyatlarga ega. Shu haqda ma'lumot bersangiz?

- Mahkumlar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi va boshqa qonunlarda belgilangan istisno hamda cheklashlar inobatga olingan holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega bo'ladi. Va majburiyatlarni bajaradilar. Mahkum ajnabi fuqarolar va fuqaroligi bo'lмаган shaxslar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquqlar, erkinliklarga ega bo'lislari va majburiyatlarni bajarishlari mumkin.

Mahkumlarning huquqlari va majburiyatlarini muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mahkumlar quydagi huquqlarga ega:

- advokatlardan malakali yuridik yordam olish;
- shaxsiy xavfsizlik;
- vijdon erkinligi kafolatlanadi. Ular har qanday denga e'tiqod qilishga yoki hech qanday denga e'tiqod qilmaslikka haqli.

Mahkumlar jazoni o'tash tartibi va shartlariga rivoja etishga, jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatining qonunga asoslangan talablarini bajarishga majbur.

Mahkumlarning o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarmasligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Savolga jinoyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudi sudyasi Mirziyod ABIDOV javob berdi

Bu strategiyani amalga oshirish uchun 2023-2027-yillarda Davlat budgeti mablag'lari, OITS, sil va bezgakka qarshi kurashish bo'yicha Global jamg'arma mablag'lari, Osyo taraqqiyot banki hamda Osyo infratizilmaiy investitsiyalar banking qarz mablag'lari hisobidan 120 milliard so'm va 54 million dollar mablag' yo'naltirildi. Pullar aholi o'tasida OIV infeksiyasini erta aniqlash, tashxislash va davolash sifatini oshirish maqsadida test-tizimlari va retrovirusga qarshi vositalarni xarid qilish, OITSga qarshi kurash markazlari va ularning tumanlararo diagnostika laboratoriyalarning moddiy-tehnika basazini rivojlantirish, mutaxassislarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, keng targ'ibot ishlarini o'tkazish, shuningdek, boshqa tashkiliy tadbirlar uchun sarflanadi.

O'zbekistonda 2027-yilga borib OIV yuqtirib ollgan shaxslarning 95 foizi o'z maqomini bilishi, maxsus davolash kurslari bilan qamrab olinishi, 95 foizining qonida virus yuklamasi aniqlanmaydigan darajaga tushishi rejalashtirilmoqda. Shu vaqtga kelib, OIVning onadan bolaga yuqishiga barham berish ham ko'zda tutilgan. Unga ko'ra, aholi orasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir 2023-2027-yillarga mo'ljalangan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Statistikaga nazar soladigan bo'lsak, kasallikning onadan bolaga yuqish darajasi 2021-yilda 0,7 foizi tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 2,3 foiz bo'lgori. 2011-yildan 2021-yilgacha 18 yoshgacha bo'lgan bolalar o'tasida kasallanish 3 baravardan ko'proqqa kamaygan.

Sog'iqlani saqlash vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda 2023-yil 1-iyundan Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida, 2023-yil yakuniga qadar esa boshqa hududlarda "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiya platformasi orqali FHDYO organlari va tegishli tibbiyot muassasalari o'tasida elektron hamkorlik tashkil qilindi. 2023-yildan

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleysi tomonidan 2030-yilga borib OIV epidemiyasiga barham berish uchun "95-95-95" strategiyasi ilgari surilgan. Unda OIV yuqtirib ollgan shaxslarning 95 foizi o'z maqomini bilishi, maxsus davolash kurslari bilan qamrab olinishi, 95 foizining qonida virus yuklamasi aniqlanmaydigan darajaga tushishi kerakligi rejalashtirilgan.

BEFARQ BO'L MANG!



OIV infeksiyasi aniqlangan holatlar monitoringini ta'minlash, real vaqt rejimida preparatlar va diagnostikumlarning harakatlanishini kuzatib borish imkonini beruvchi elektron axborot tizimi yaratildi. Tizimni Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliva vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining elektron bazalari bilan integratsiya qilish orqali o'zaro axborot almashinuvni yo'ga qo'yildi.

Sarvar G'AFFAROV,
Sirdaryo viloyati OITSga qarshi kurashish markazi vrach-laboranti

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasi inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadi-gan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan ko'plab yangi normalar bilan to'ldirildi.

"XABEAS KORPUS" INSTITUTI VA "MIRANDA QOIDASI" BU HAQDA NIMALARNI BILAMIZ?

Asosiy qonunimizda bevosita inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab yangi normalar o'z aksini topdi. Masalan, shaxsni sudning qarorisoriz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi belgilab qo'yildi. Shaxsnинг erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishini belgilovchi mazkur qoida tergov organlarining insonlarni noqonuniy hibsga, asosiz qamoqqa olishi va saqlashiga yo'l qo'ymasligiga qaratilgandir. Bu orqali xalqaro e'tirof etilgan "Xabeas korpus" institutining qo'llanish ko'lamni yanada kengaytirildi.

"Xabeas korpus" – ya'ni, jinoi ta'qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqining qadimiy e'tiroflaridan biri hisoblanadi. Angliyada paydo bo'lgan ushbu institut aybdor shaxs ushlanganidan to'suda qadar una nisbatan ko'rileyotgan huquqiy chora jarayonini o'rganadigan muassasa hisoblanadi. O'sha davrdan buyon xalqaro huquq qoidalari fuqaroni sud jarayoniga qadar ushlab turilishi holatlari "Xabeas korpus" instituti, deb yuritiladi.

Mamlakatimizda "Xabeas korpus" instituti 2008-yildan tarbiq etilgan bo'lib, uning qo'llash doirasi yillar davomida kengayib bormoqda, tergov jarayoni ustidan sud nazorati qat'iy ravishda kuchaytirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 27-moddasida ushbu holatlarga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu atama boshqa ayrim yondosh moddalarida ham o'zining ifodasini topgan.

"Miranda qoidasi"ga muvofiq, ushslash chog'ida shaxs o'z huquqlari to'g'risida xabardor qilinishi lozimligi, uni ushlab turgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi shaxs huquqlari tushunarli bo'lganmi, degan savolga ijobjiy javob olishi lozimligi nazarda tutiladi.

Ushbu qoida mazmunini Konstitutsiyamizning 27-moddasiga kiritilgan – "shaxsni ushslash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslar tushuntirilishi shart", degan jumillarda ko'rish mumkin.

Umuman, Konstitutsiyamizga kiritilgan "Xabeas korpus" va "Miranda qoidasi" tamoyillari inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolati, umume'tirof etilgan institutlar konstitutsiyaviy darajada kuchaytirilayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, konstitutsiyada hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilanib, bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoi ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o'tkazish, uning sha'ni va qadr-qimmatini kamshitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo'llanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o'z aybini tan oлgani unga qarshi yagona daili bo'lsa, u aybdor deb toplishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo'yicha haqqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishining oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqqiyay qybdor shaxs yoki shaxslarning jazodan qutulib ketishining oldini olishga xizmat qiladi.

Bahodir QORAYEV,
jinoyat ishlari bo'yicha Boyovut tuman sudi raisi

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi, Buxoro davlat universiteti hamda Toshkent davlat yuridik universiteti hamkorligida "Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi – inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning mustahkam poydevori" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiysi tashkil qilindi.

Konferensiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi hamda Buxoro viloyat sudi vakillari, O'zbekiston Respublikasi Oly Majlis Senati a'zolari, fan doktorlari va professor-o'quvvatcilar o'z ma'ruzalar bilan ishtirok etishdi.

Konferensiyaning Buxoro viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i A. Rahmatov hamda Buxoro davlat universiteti rektori O. Hamidov kirish so'zi bilan ochib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunish va amalda ijro etilishini ta'minlash barchamiz uchun juda muhim.

■ KONFERENSIYA

Konstitutsiya hayotning barcha jahalarida biz uchun birinchi navbatdagi, zarur va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan huquqiy-hujjat sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunish va amalda ijro etilishini ta'minlash barchamiz uchun juda muhim.

Yangi Konstitutsiyada "inson-jamiyat-davlat" g'oyasi



Konferensiyaning ta'kidlanganidek, mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendum orqali yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilishni ma'qullab ovoz berdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi belgilab qo'yildi. Konstitutsiyaning boshqa barcha moddalarini uning birinchi moddasida belgilangan ushbu tushunchalarini tasdiqlashga qaratilgan, desak mubolog'a bo'lmaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya birinchi navbatda insonparvarligi, inson huquqlarining kafolatlarini birinchi o'ringa qo'yganligi bilan ajralib turadi. Unga kiritilgan normalarning yarmidan ko'pi insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Konferensiya o'rinnbosari, yuridik fanlar doktori A. G'afurov "Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi – milliy konstitutsionalizm tarixidagi noyob hodisa", Toshkent davlat yuridik universiteti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) B. Narimonov "Huquqiy davlat prinsipi asosida inson qadrini ulug'lashni sifat jihatdan yangi bosqichga chiqarishda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ahamiyati", Oly Majlis Senati a'zosi A. Huseynova "Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bo'yicha inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Konstitutsiya davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi yondashuvni va faoliyat tamoyillini tubdan o'zgartirishga, Yangi O'zbekistonda o'zaro munosabatlarning asosi sifatida "davlat-jamiyat-inson" tamoyili o'rniiga g'oyasini asos qilib qo'yishga qaratilgan.

Konferensiya so'zga chiqqanlar yangi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berganligini aytib o'tshidi.

O'Z MUXBIRIMIZ

Prezidentining 2023-yil 8-maydag'i "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-son farmoni bilan yangi Konstitutsiyaning ijrosini qanday ta'minlash masalasi-da chora-tadbirlar belgilab berilganligi masalalariga alohida to'xtalib o'tdi.

Ma'ruzachi ta'kidlanganidek, farmonda davlat organlari va tashkilotlarning rahbarlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri va so'szsiz qo'llanilishi shart. Konstitutsiya normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjalarning mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmaganiliga vajib bilan qo'llashni rad etish qat'liyan taqilqanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat quolibishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Konstitutsiya davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi yondashuvni va faoliyat tamoyillini tubdan o'zgartirishga, Yangi O'zbekistonda o'zaro munosabatlarning asosi sifatida "davlat-jamiyat-inson" tamoyili o'rniiga g'oyasini asos qilib qo'yishga qaratilgan.

Konferensiya so'zga chiqqanlar yangi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berganligini aytib o'tshidi.

**ATB "Qishloq qurilish bank" jamoasi
barcha yurtdoshlarimizni**

Qurban hayiti

bilan samimi
muborakbod etadi!

Quant mobil
ilovamizni
yuklab oling!

Available on
App Store

Available on
Google Play

www.qishloqqurilishbank.uz +998 78 150 00 55, 1254

Xizmatlar/litsenziyalangan.

© Davomi. Boshlanishi 1-borda



SO'Z QADRI – O'Z QADRIMIZ!

To'g'ri, bugun bayram! Odatda, bunday kunda hamma o'z tajribasi va yutuqlari haqida yaltiroq va siliq gaplar ko'proq aytishiga o'rganib qolgan bo'ssa-da, bu gal aksincha, jurnalistlar gohida fojalarni yoritishdan seskanmay, afsuslanmay qo'yganimizni tan olishga majburmiz. Jamiyatga ham ana shu qora xabarlar tobora singib bormoqda. Diydamizni qotirgan bunday lavhalar vahshiyliga oddiy hol deb qarash ko'nikmasini paydo qilayotgani esa undan ham ayanchli.

Ulug' adib Abdulla Qahhorning "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak" degan oltin qoidasiga qasdma-qasd so'zni ko'proq begunoh odamlarning fojiasi sharhiga, baxtsizliklari tahliliiga, bo'limg'ur voqealar reklamasiga ishlatsishga o'rganib qoldik, shu bilan shuhurat orttirish mumkin, degan taskin bilan o'zimizni ovutayapmiz. Mavzularimiz buncha taxir, buncha achchiq, tuyg'ularimiz buncha sovuqlashib bormoqda? So'zning qadri o'z qadrimiz ekanligini unutdikmi?

Jurnalistika bizga qismat ekan, jurnalistlar davrning ko'zgusi va kuychisi ekan, bu ko'zguning yuziga qon sachrashidan, bu kuyning pardasi bevaqt uzelishidan asrash istagi biz uchun har narsadan ustun bo'lishi kerak emasmi? Mayli, jurnalist kamchiliklarga murosasiz, illatlarga ayovsiz bo'lsin, al-batta, adolat tarafdoi, haqiqat talabgori bo'lsin, ammo aslo yovutlikning targ'ibotchisiga, vahshiylikning xabarchisiga aylanmasini! Zero, Hadisda ham noxush xabarlar ni tarqatmangiz, deb bejiz aytilmagan!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbirin

E'LONLAR

Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 16-iyundagi 159-um-soni buyrug'i bilan "BURGUT-2022" advokatlik byuros, advokat Rustamov Abduraxim Abdalimoviching Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2021-yil 4-iyun kuniga berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi TS 000480 raqamli litsenziya va advokatlik maqomli Nurafshon tumanleraro ma'muriy sudining 2023-yil 2-maydagi hal qiluv qaroriga asosan 1 (bir) oyga o'shmagani muddatiga to'xtatildi.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joriy yilning 20-iyun kuni Rayxonov Mirzam Ismoilovichga viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2022-yil 27-oktabrda berilgan KS 000301-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi KS 0000405-soni litsenziya egasi, "A.S.Huquq" advokatlar hay'ati advokat Qodirov Xayrullo Mamatdolsolyevichning advokatlik maqomini va advokatlik guvohnomasining amal qilishi 2023-yil 3-iyun kundan kasallik davriga (1-yildan oshmagan) muddatiga to'xtatildi.

Xorazm viloyat adliya boshqarmasi tomonidan jinoят ishlari bo'yicha Xonga tuman sudining 2023-yil 26-apreldegi 1-2209-2301/12-soni jinoят ishi yuzasidan chiqarilgan hukmliga asosan "Yuridik yordam JShM" advokatlik byuros, advokati Matyoqubov Jasurbek Shonazarovich JKning 205-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan aytil deb topilganligi sababli boshqarmasining tegishli buyrug'i bilan unga berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokat maqomini tugatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2013-yil 14-iyundagi 130-um-soni buyrug'i bilan adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 19-dekabrda berilgan AN №0000861-soni litsenziya egasi "LEGAL-WORK"

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZRULIGI
"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan
XIZB 2010-7847
1112 2010-7847
4772010-7847

Bosh
muhabbir
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI
Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinceboeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmal tarziq
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Yorbek Iskandarov

Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnalni birlashqan tahririyati kompyuter basasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy
Tiraj - 3850
Buyurtma - 1885

Topshirish vaqt - 19:00
Topshirildi - 20:00

MANZILIMIZ:
100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65
Bahosi keilishigan narxda
1 2 3 4 5